

**“Tibbiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya (litsenziya bitimi) olish (qayta rasmiylashtirish, uzaytirish) uchun elektron ariza taqdim etish” interaktiv xizmat
REGLAMENTI**

1. Xizmat haqida

Tibbiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya (litsenziya bitimi) olish (qayta rasmiylashtirish, uzaytirish) uchun elektron ariza taqdim etish.

1.1.Xizmatning sohaga tegishliligi

Sog‘liqni saqlash.

1.2.Xizmatdan foydalanuvchining toifasi

Yuridik shaxslar.

2. Tashkilot

[O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi](#)

2.1.Bog‘lanish

160100, Namangan shahar, istiqlol ko‘chasi, 57-uy

Telefon: +998 (69) 227-12-25, 227-07-22

Web-sayt: www.namangan.uz

3. Xizmatni ko‘rsatish uchun kerak bo‘ladigan hujjatlar

Yagona portalda ro‘yxatdan o‘tib, davlat organi tanlanadi va ariza shakli to‘ldiriladi.

3.1.Xizmatni ko‘rsatishning huquqiy asosi

[O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29 mart 2012 yildagi «Tibbiy faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 92-son qarori](#)

4. Xizmat narxi va to‘lash tartibi

Elektron arizani Yagona portal orqali taqdim etish bepul hisoblanadi.

To‘lovning boshqa turlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tibbiy faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

4.1.Xizmatni ko‘rsatish muddati

Litsenziya (litsenziya bitimi) berish yoki rad etish (qayta rasmiylashtirish, uzaytirish) to‘g‘risidagi qaror litsenziyalash organi tomonidan arizani qabul qilinganda 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatda qabul qilinadi.

4.2.Natijani olish usullari

Agar ariza xizmatning barcha talablariga javob bersa, Litsenziyalash va nazorat qilish boshqarmasining javobgar xodimi arizachi bilan elektron pochta yoki telefon orqali bog‘lanadi.

4.3.Xizmat natijasi

Arizachi tomonidan tibbiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya (litsenziya bitimi) olish (qayta rasmiylashtirish, uzaytirish) uchun elektron arizani Internet orqali to‘ldirish hamda Litsenziyalash va nazorat qilish boshqarmasiga taqdim etish.

4.4.Rad etish sabablari

Litsenziya berishni rad etish [«Faoliyatning alohida turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi](#) O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida ko‘zda tutilgan sabablarga asosan yuritiladi.

5. Shikoyat arizasi berish tartibi

Arizachi litsenziyalash organining qaroridan norozi bo‘lib shuningdek qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda faoliyat ko‘rsatmayotgan litsenziyalash organining xodimlari ustidan shikoyat arizasi berish huquqiga ega.